

MOLIYAVIY RISKLARNI BAHOLASHNING AXBOROT TA'MINOTI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11396797>

Mavlyanova Yulduzxon Turg'unovna

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti

mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Mazkur ilmiy tezisda aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy risklarni boshqarishning zarurati va ahamiyati bayon etilgan. Shuningdek, moliyaviy risklarni boshqarishda muhim ahamiyat kasb etuvchi moliyaviy risklarni axborot ta'minoti va uning asosiy ko'rsatkichlari keltirilgan. Moliyaviy risklarni baholash amaliyotini istiqbolda rivojlantirish orqali moliyaviy barqarorlikni ta'minlashga doir ilmiy xulosalar yoritilgan.

Tayanch so'zlar: moliyaviy barqarorlik, moliyaviy menejment, investitsion risk, investitsiya portfeli, extimollik, risk darajasini baholash, risk-menejment.

Aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv mexanizmini rivojlantirish borasida ko'plab ijobiy o'zgarishlarga ega bo'lgan bo'lsada, biroq xalqaro amaliyotda kompaniyalar istiqbolini prognoz qilishda keng foydalaniladigan korporativ baholash instrumentlarini joriy etishning amaldagi holati bo'yicha ijobiy xulosaga kelish qiyin. Aynan moliyaviy qarorlar qabul qilishda moliyaviy risklarni baholash, korporativ baholash mexanizmini muhim elementlaridan biri hisoblanadi. Kompaniyalar faoliyatiga moliyaviy risklar ta'sirini baholash nazariyasini ishlab chiqishda erishilgan yutuqlarga qaramay, ko'plab muammolar hal etilganicha yo'q, ularni hal qilish metodologiyasi va uslubiy bazasi amaliyot talablaridan ortda qolmoqda, hamda asosiy yondashuvlar va masalalar bo'yicha fikrlardagi farqlar kuzatilmoqda. Tan olish lozimki, hozirgi kunga qadar aynan moliyaviy risklarni aksiyadorlik jamiyatlari moliyaviy faoliyatiga ta'sirini baholash metodologiyasi ilmiy tadqiqot ishlarda keng o'rganilmagan. Shuning uchun, moliyaviy risklarni aksiyadorlik jamiyatlari moliyaviy faoliyatining alohida yo'nalishlari bo'yicha

ta'sirini baholashning uslubiy jihatlarini tadqiq etish dolzarb masalalardan biri sanaladi.

Moliyaviy risklarni identifikatsiyalash va tahlil qilish jarayoni bu moliyaviy riskni boshqarishning asosiy bosqichi hisoblanib, qabul qilingan qarorlarning nechog'lik samarali ekanligi va oxir-oqibat, kompaniyani mumkin bo'lgan moliyaviy risklardan yetarli darajada himoyalana olishi bevosita qaror natijalariga bog'liq bo'ladi. Shu nuqtai-nazardan moliyaviy menejmentda risklarni boshqarish sohasining afzalligi faoliyat jarayonida moliyaviy risklarning ta'sirini inobatga olishi, moliyaviy risklarni boshqarish tizimining mohiyatini tushunishi muhim hisoblanadi. Moliyaviy risklarni identifikatsiyalash va tahlil qilishning asosiy maqsadi esa bu qaror qabul qiluvchi shaxslarda, kompaniyang faoliyati samaradorligiga, aksiyadorlar, mijozlar va boshqa kontragentlar va boshqa hamkorlik qilish jarayonida yuzaga keladigan mulkiy manfaatlarga ta'sir ko'rsatuvchi moliyaviy risklarning to'liq "manzarasi"ni shakllantirishdan iboratdir. Moliyaviy risklarni monitoring qilish natijasi, moliyaviy menejment tizimining to'g'ri tashkil etilganligi kompaniyani belgilangan samaradorlik me'yorlari doirasida moliyaviy risklardan himoyalaniish imkoniyatini yaratishini namoyon etadi.

Moliyaviy riskni idenfikatsiyalash va tahlil qilish mexanizmining alohida elementi sifatida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan moliyaviy risklarni sifat va miqdor jihatdan o'rganish jarayonlarini amalga oshirishni nazarda tutadi.

Moliyaviy riskning miqdoriy darajasiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni ichki va tashqi omillarga ajratish mumkin. Tashqi omillarga mamlakat va xalqaro siyosiy va iqtisodiy vaziyat, tadbirkorlik faoliyatining normativ-huquqiy asoslari, soliq tizimi, raqobat, tabiat hodisalari va boshqalar kiradi.

Ichki omillar esa kompaniyaning moliyaviy strategiyasi, ishlab chiqarish – moliyaviy faoliyatida kapitaldan samarali foydalanish imkoniyatlari, boshqaruv organlari sub'ektlarining kasbiy mahorati va moliyaviy menejment tizimining sifati va boshqalarni kiritish mumkin. Moliyaviy risklarni boshqarish jarayonida qaror

qabul qiluvchi sub'ektlarga o'z vaqtida va sifatli ma'lumotlarni yetkazib berilishi samarali risk-menejmentning muhim sharti bo'lib hisoblanadi.

Ma'lumotlarni ishonchligi va samaradorligiga nisbatan asosiy talablar sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

- uning mazmuni risk-menejment tizimini tashkiliy tuzilishi bilan kelishilganligi;
- risk menejment tizimining ko'p bosqichli tuzilishini ma'lumot bilan ta'minlanish jarayonining tezkorligi;
- ma'lumotlar xususiyatlari va qabul qilinadigan boshqaruv qarorlarining afzalliklarini mos kelishi;
- ma'lumotlar olishning differensial usuli.


Sanab o'tilgan talablardan kelib chiqadiki, moliyaviy riskni boshqarish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar turlicha, uning tarkibi va hajmi sezilarli darajada o'zgaruvchan, ularni olish esa yetarli darajada tezkor bo'lishi zarur. Ularning bajarilishi sharti bo'lib, ko'p hajmdagi ma'lumotlarni qabul qilish va ularga ishlov berishda axborot texnologiyalaridan foydalanish bo'lib hisoblanadi. Umuman olganda moliyaviy risklarni axborot ta'minotini quyidagicha ifodalash mumkin (1-rasm). Korporativ tuzilmalar umumiy axborot tizimining alohida elementi sifatida berilgan ushbu ta'minot manbalari tarmoqlar asosida tashkil etilib, biznesni olib borish jarayonida raqamli texnologiyalar va yagona elektron platformadan foydalangan holda amalga oshirilishi mumkin.

Moliyaviy risklarni boshqarishning ma'lumotlarni yig'ish va qayta ishlov berish bo'yicha tizimining umumiy axborot tizimiga quyidagi omillarni inobatga olish lozim:

- 1) qo'llanilayotgan axborot texnologiyasi arxitekturasining jihatlari va uni ma'lumotlar, ilovalar yoki mijozlarga nisbatan moslashishi;
- 2) ma'lumotlar bazasining axborot almashinish xususiyati va shakllarini kelishuvi;
- 3) moliyaviy riskni boshqarish bo'yicha ma'lumotning ierarxik tuzilishi va undan umumfoydalanish borasidagi cheklovlarning mavjudligi;
- 4) ma'lumotlarni qayta ishlashning maqsad va usullari;

Moliyaviy riskni boshqarishda foydalaniladigan ma'lumotlarni yig'ish va qayta ishlash tizimi quyidagi afzalliklarga ega:

- 1) risk-menejmentning vazifalar tizimidagi risklar toifasini tez o'zgarishi va ustuvor vazifalarni belgilash borasidagi qobiliyati;
- 2) moliyaviy risk tahlilini ma'muriy, marketing, iqtisodiy va moliyaviy ma'lumotlar bilan taqqoslanishi va ularni o'z vaqtida tuzatib borish;
- 3) moliyaviy riskni boshqarish jarayonini va turli toifadagi boshqaruv sub'ektlarining manfaatlarini inobatga olib ierarxiyaning turli darajalari va turli usullarni qo'llagan holda, moliyaviy riskni baholash va tahlil qilish asosini o'zgaruvchanligini oshirish;
- 4) moliyaviy riskni boshqarish tizimining turli jihatlarini integrallashuvi: miqdoriy va sifat bo'yicha baholash; moliyaviy riskni boshqarish bo'yicha tanlangan usul va uning samaradorligi;
- 5) audit jarayonini soddalashtirish va moliyaviy riskni boshqarish dasturini joriy etilishini nazorat qilish.



1-rasm. Risk menejmentining axborot ta'minot manbalari

Moliyaviy risklarni baholash metodologiyasi keng ilmiy yo'nalishlardan biri bo'lib, xalqaro va milliy amaliyotda uning tasnifiy hususiyatlaridan kelib chiqqan holda

metodologik yondashuvlar tadqiq etib borilmoqda. Investitsion risklar nafaqat bitta kompaniya yoki muayyan sohaning o'zida yuzaga keladigan ichki omillar bilan, balki mamlakat yoki jahon iqtisodiyotidagi o'zgarishlar natijasida yuzaga keladigan tashqi risklar bilan ham bog'liq. Shuning uchun, investitsion resurslarni ma'lum bir loyihaga sarflashdan avval, joriy davrdagi bozordagi holatni tahlil qilish va yaqin kelajakda qanday iqtisodiy vaziyat kutilayotganligini hamda investor tanlagan kompaniyaning faoliyat sohasiga doir qonunlarni ham chuqur tahlil qilish kerak. Xalqaro moliyaviy ekspertlarning fikriga ko'ra, odatda har bir moliyaviy risk turi uchun alohida boshqarish usuli va uslubiyati mavjud. Investitsiya loyihaning risk darajasini baholash va tahlil qilishning o'ziga xos usullarini tanlash quyidagi omillarga bog'liq: loyihaning qamrovi, ma'lumot bazasining to'liqligi, tahlil va loyihaning ishonchlilik darajasi talablari va boshqalar. Investitsion faoliyat risk bilan uzviy bog'liqligini hisobga olgan holda, risklarni kamaytirish yoki oldini olish imkoniyatiga ega bo'lish juda muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 14 dekabrda "Davlat ishtirokidagi korxonalarni moliyaviy sog'lomlashtirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 1013-sonli Qarori.
2. Fung L. Financial management. Stewart House, 2012 y, p. 38.
3. Ковалев П.П. Особенности оценки рисков инвестиционных проектов//Экономика: вчера, сегодня, завтра. 2017 г., том 7. ст. 251-260.
4. Шимко П.Д. Международный финансовый менеджмент: учебник и практикум. 2-е изд., перераб., и доп. – М.: Юрайт - 2019 г. 494 ст.
5. Jia, X., Cui, Y., Patro, R., Venkatachalam, S., Kanday, R. & Turayevich, J. (2023). Application of fractional-order nonlinear equations in coordinated control of multi-agent systems. *Nonlinear Engineering*, 12(1), 20220335.